

Pedagogika sohasida qo‘llaniladigan axborot texnologiyalari

**Guliston Davlat Pedagogika
Instituti Pedagogika fakulteti
1-kurs talabasi
Fozilova Nasiba Irisbek qizi**

Annotatsiya :

Maqolada pedagogik sohada va ta’lim sohasida axborot texnologiyalarining o‘rni hamda yoshlarning axborot madaniyatini shakllantirish, ularni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida o‘qitish muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarning axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olishi ularning pedagogik sohada bilimlarni yana ham mukammallashtiradi. Talabalarga zamonaviy axborot texnologiyalarni o‘rgatish, ularni pedagogik texnikasi va pedagogik usullari, bilim, ko‘nikmalarini mustahkamlashga undaydi.

Kalit so‘zlar : pedagogik soha, axborot texnologiyalari, axborot vositalari, video proektorlar, elektron doskalar, ta’lim sohasi, texnika, texnologiya.

Kirish:

Bugungi kunda axborot texnologiyalari sohasi respublikamizning rivojlanishida muhim o‘rin tutib kelmoqda. Yurtimizdagi axborot texnologiyalarini keng joriy qilish va rivojlantirish borasida olib borilgan siyosat hozirgi kunga kelib o‘z natijalarini ko‘rsatmoqda.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish respublikada jahon axborotlarini tez va oson bilib olish, yurtimiz rivojlanish samaradorligini oshiradi. Pedagoglarning zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishi ya’ni video proektorlar, televizor shuning bilan birga elektron doskalar orqali bilim va faoliyatlaridagi imkoniyatlarni yanada kengaytiradi.

Zamonaviy pedagoging ta’lim jarayonida talabalarga ilmiy - pedagogik talablar asosida dars berishi, darsni qiziqarli va samarali o‘rganish uchun video proektorda har xil slayd ko‘rinishdagi savol - javob o‘yinlari shuning bilan birga ilg‘or pedagogik mahorat va texnikalardan foydalanish talabalarni o‘quv jarayonlarini o‘zlashtirishga turtki bo‘ladi.

"CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH"

Issue 2. February 2024

Adabiyotlar tahlili va Metodologiyasi.

Gulziyo Berdiyeva o‘zining "Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish" nomli maqolasida, axborot texnologiyalari bugungi kunda ijtimoiy turli ko‘rinishdagi axborotlar majmuasi keng va rivojlangan bo‘lib, uning jamiyatda tutgan o‘rni beqiyosligi.Oxirgi davrda axborotli muhitda katta o‘zgarishlar bo‘lib bormoqda. Ana shu o‘zgarishlar qog`ozsiz texnologiya zaruriyatini keltirib chiqarishi mumkinligini aytib o‘tadi.

Bu borada olib boriladigan ishlar axborot motivni o‘stirishga, uni qo‘ya bilishni o‘rgatishdan iborat. Axborotlashtirish axborot jarayonlarini rivojlantirish vosita va sharoitlarining butun majmui bo‘lib, tegishli texnik, bazani yaratish, tashkiliy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy islohotlar qilishni o‘z ichiga oluvchi jarayon bo‘lib, u ta’limni texnologiyalashtirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Shu bilan birga O‘rinboyeva Lolaxonning "Axborot texnologiyalarida matematikaning o‘rni va ahamiyati" haqidagi maqolasida,

Axborotlashtirish faqatgina fan va texnika yutug‘i bo‘lmasdan, balki ular ta’lim,tarbiya, san’at, tibbiyat, iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, sanoat va shu kabi sohalarning rivojlanishida ham doimo omil bo‘la oladi. Axborot- kommunikatsiya texnologiyalari esa o‘z navbatida motivlarni yuzaga keltiruvchi eng muhim omillardan biridir. Chunki, axborotlarning jamlanganligi, ko‘rgazmaliligi, ya’ni turli xil taqdim etish imkoniyatlarining mavjudligi, animatsiyalardan foydalanish, ta’lim-tarbiya oluvchilarining yoshi va fiziologik xususiyatlariga mos axborotlarni taqdim etib borish o‘quvchilarda ta’limga bo‘lgan qiziqishni va bilim olishga xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalari bu axborot ustida bajarish mumkin bo‘lgan amallardir. Bu – axborotni saqlash, yig`ish, qayta ishlash, saralash, uzatish Axborotli muhitning kelajakda, inson hayotidagi o‘rni va ahamiyati, bugungi holatidan ancha yuqori bo‘lishi uchun bajarilishi lozim bo‘lgan ko‘lamini kengaytirish talab etiladi.

Ana shu vazifalar majmuini informatizatsiya (axborotlashtirish) deb atashga kelishib olingan.

Muhohkama

Hozirgi innovatsion rivojlanayotgan davlatda raqamlashtirish siyosat jadallik bilan o‘z o‘rnini topmoqda. Hamma joylarda axborot vositalariga bo‘lgan ehtiyoj mavjud shuning bilan birga ta’limda juda ham ommalashgani va axborot texnologiyalarisiz oliy ta’limni his qilish qiyin.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

Nega? Chunki hozirgi kunda axborot texnologiyalariga bo‘lgan ehtiyoj oshib bormoqda bularga video proektorlar orqali dars o‘tishlar va zarurat bo‘lganda onlayn zumda darslarning o‘tilishi misol bo‘lishi mumkin. Jadal rivojlanib borayotgan bu texnologiyalar jamiyat va hamda respublikaning ham rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Shunday ekan axborot texnologiyalaring foydalarini juda ko‘p o‘quvchilarning yodida qolishiga ham ko‘p yordam beradi.

Talim sifatini oshirishda amalga oshirilgan ishlar haqida gap ketganida esa talabalarni axborot vositalaridan oqilona foydalanish zarurati turadi.

Darslarning nazariy va amaliy qismlaridan o‘quvchilarni qiziqishlarini oshirish uchun pedagogik texnologiyalarning samarali usullaridan va axborot vositalarini ko‘proq ishlatishi ko‘zda tutiladi.

Natija:

Axborot vositalari yurtimizing barcha jabhalarda bor ekan, demak bizning axborot texnikalarga bo‘lgan ehtiyojimiz oshib boraveradi. Buni hamma sohalarda ko‘rishimiz mumkin.

Hozirda pedagogika sohasida axborot vositalaridan foydalanish bu barcha uchun samaralidir. Axborot vositalaridan ko‘proq foydalanilsa shuncha ko‘p ma'lumotlarni bilish mumkin. Agarki axborot vositalari bo‘lmadi deb xisoblaganimizda ham bo‘ladi, hammasi juda qiyin kechadi talabalarning bilim olishlari, domlalarning barcha talablarga o‘rgatmoqchi bo‘lganlariga esa vaqt yetmay qoladi.

Shunday ekan axborot zamonida yashayotgan ekanmiz bizdan axborot vositalari va axborot texnologiyalaridan to‘la qonli foydalanishimiz talab qilinadi.

Axborot texnologiyalari Pedagogika sohasida ish yuritayotganlarga ham juda qo‘l keladi , qo‘llanilishi kerak bo‘lgan metodlar usullarni video proektorda va televizor orqali biz to‘g’ri va aniq tushunib olishimiz mumkin. Axborot texnologiyalaridan keng foydalanish barcha sohaning natijalarini yuqorilatadi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda pedagog domlalarning yana ham bilim va ko‘nikmalarni oshirish va talabalarga ko‘proq ma'lumotlarni yetkazish axborot texnologiyalariga murojaat qilishga undaydi.

Pedagogning ham talabaning ham axborot vositalari va texnologiyalaridan foydalanishi bu juda yaxshi negaki, jamiyat ham hozirgi kunda axborot

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

texnologiyalarini o‘rganishmoqda ularni samaralarini ham ko‘rishimiz mumkin. Axborot texnologiyalrini qo‘llay olish bu dars samarasini va dars tahlilini tartibli o‘tishiga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati :

- 1.Usmanov A.I. Zamonaviy axborot texnologiyalari, – T.: “Akademiya”, 2007 y.
- 2.Sheraliyev O.Sh. Masofaviy ta’lim tizimida tinglovchilar bilim darajasini nazorat qilishda avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish metodikasi. (magistr)... diss. – Qo‘qon, 2021. – 82 b.
3. I.A.Mannopova, R.A.Mavlonova, N.R.Ibragimova. Texnologiya. Umumiy o‘rta ta’lim 4 - sinf o‘quvchilari uchun.-Toshkent: "O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi", 2017.
- 4.Abdiyev Sh. Ta’lim sifat samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining o‘rni. Uslubiy ko‘rsatma. – VVXTXQTMO Samarqand, 2015 y.
5. G‘ulomov S. Axborot tizimlari va texnologiyalari – T.: «Sharq», 2000 y.

**Research Science and
Innovation House**